TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 17 - may 140-14-220-Q/23 Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 5-maydagi 280-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 5-maydagi 280-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.Toshkent shahar hokimining ““O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-sonli Farmoni ijrosi haqida” 2023-yil 5-maydagi 280-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoniga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yangilangan tarkibi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining hududiy bo‘linmalarining yangilangan namunaviy tarkibi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

Toshkent shahar hokimining 2017-yil 26-avgustdagi 1143-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Kamilov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi **X.Inogamov**